

IV. XIZMATLAR


Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Xizmatlar sohasida 87,8 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga ko‘paydi. Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi tarkibida 01.10.2022-yil holatiga eng katta ulushni savdo xizmatlarda (38,2 %), boshqa xizmatlarda (39,9 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (8,4 %), axborot va aloqa xizmatlarda (5,8 %), eng kam ulushni tashish va saqlashda (5,2%), sog‘liqni saqlash xizmatlarida (2,5 %) tashkil etildi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, foizda (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

2021 - yil yanvar-sentabr

2022 - yil yanvar-sentabr




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
(ko'rsatilgan) bozor xizmatlarning hajmi
2022-yil yanvar-sentabr oylarida**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>	<i>Jamiga nisbatan %</i>
Xizmatlar – jami	97 252,9	117,4	100,0
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	10 018,3	124,6	10,3
moliyaviy xizmatlar	31 814,0	131,6	32,7
transport xizmatlari	8 763,2	118,8	9,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4 976,9	108,5	5,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 768,8	118,0	3,9
savdo xizmatlari	21 680,5	105,2	22,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3 476,5	110,7	3,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	4 360,3	101,9	4,5
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 003,8	106,3	2,1
ijara xizmatlari	1 339,0	101,9	1,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	570,0	107,1	0,6
shaxsiy xizmatlar	1 133,0	102,1	1,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3 174,1	116,2	3,3
boshqa xizmatlar	5 151,5	107,7	5,1

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar (32,7 %), savdo xizmatlari (22,3 %), transport xizmatlari (9,0%) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,3 %) tashkil etadi. Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (0,6 %) hamda shaxsiy xizmatlar (1,2 %) egalladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, foizda
(2022 - yil yanvar–sentabr oylari)



Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi moliyaviy xizmatlari 32,7 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Moliyaviy xizmatlar oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, moliyaviy xizmatlar iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida ulgurji savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi-48,9%.




Tumanlar kesimida savdo xizmatlarning hajmi
(2022- yil yanvar-sentabr oylari)

	<i>Jami</i>		
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabrga nisbatan, %</i>	<i>Savdo xizmatlari hajmida tumanlarning ulushi, %</i>
Toshkent shahri	21 680,5	105,2	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	1 437,4	132,8	6,6
Mirzo Ulug‘bek	1 614,4	105,4	7,4
Mirobod	2 645,2	103,5	12,2
Olmazor	2 205,0	107,4	10,2
Sergeli	1 331,1	117,4	6,1
Uchtepa	1 665,7	101,9	7,7
Chilonzor	2 555,9	101,8	11,8
Shayxontohur	1 529,1	104,3	7,1
Yunusobod	2 147,6	99,8	9,9
Yakkasaroy	1 885,9	100,8	8,7
Yashnobod	2 267,7	100,9	10,5
Yangihayot	395,5	114,3	1,8

Tumanlar o'rtasida savdo xizmatlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bektemir (132,8), Sergeli (117,4 %), Yangihayot (114,3 %) tumanlarida qayd etildi. Savdo xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Yunusobod (99,8 %) va Yakkasaroy (100,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, foizda
(2022- yil yanvar–sentabr oylarida)



Tumanlar o'rtasida savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan Mirobod (12,2 %), Chilonzor (11,8) va Olmazor (10,2%) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulushga Yangihayot (1,8 %), Segeli (6,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarning hajmi, mlrd.so'mda
(2022 yil yanvar–sentabr oylarida)




Tumanlar o'rtasida savdo xizmatlari bo'yicha yuqori hajmga ega bo'lgan Mirobod (2 645,2 mlrd. so'm), Chilonzor (2 555,9 mlrd. so'm), Olmazor(2 205,0 mlrd. so'm) , Yunusobod (2 147,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan hajmga Segeli (1 331,1 mlrd. so'm), Yangihayot (395,6 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlarining tarkibi, foizda

(2022- yil yanvar–sentabr oylarida)



Xizmatlar tarkibida transport xizmatlari – 9,1 % ulush bilan yetakchilar qatorini egallaydi. Yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmining oshish omillari yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 9,1 % bilan ustunlikka ega.


**Tumanlar kesimida transport xizmatlarning hajmi,
2022 - yil yanvar-sentabr oylarida**

	<i>Jami</i>		
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabrga nisbatan, %</i>	<i>Transport xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %</i>
Toshkent shahri	8 763,2	118,8	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	466,6	104,7	5,3
Mirzo Ulug‘bek	672,3	124,6	7,7
Mirobod	1 253,5	111,7	14,3
Olmazor	750,2	111,5	8,6
Sergeli	1 330,3	118,2	15,2
Uchtepa	547,2	146,6	6,2
Chilonzor	669,8	125,1	7,6
Shayxontohur	656,2	128,3	7,5
Yunusobod	890,0	125,0	10,2
Yakkasaroy	598,4	124,4	6,8
Yashnobod	659,8	109,0	7,5
Yangihayot	268,9	105,5	3,1

Tumanlar o‘rtasida transport xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Uchtepa (146,6%), Shayxontohur (128,3 %) va Chilonzor (125,1%) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan o‘shish sur‘atlari Bektemir (104,7%), Yangihayot (105,5 %) va Yashnobod (109,0 %) tumanlarida qayd etildi.


Transport xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, foizda
(2022- yil yanvar–sentabr oylarida)



Tumanlar kesimida transport xizmatlari bo'yicha eng yuqori ulush Sergeli (15,2 %), Mirobod (14,3 %), Yunusobod (10,2 %) va Olmazor (8,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulush Yangihayot (3,1 %), Bektemir (5,3 %) va Uchtepa (6,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar-sentabr oylari)



**Tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarning hajmi,
2022- yil yanvar-sentabr oylarida**

	<i>Jami</i>		
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabrga nisbatan, %</i>	<i>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %</i>
Toshkent shahri	10 018,3	124,6	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	148,1	200,3	1,5
Mirzo Ulug‘bek	1207,4	122,4	12,1
Mirobod	1195,9	119,9	11,9
Olmazor	832,3	133,6	8,3
Sergeli	316,0	160,9	3,2
Uchtepa	429,3	119,8	4,3
Chilonzor	857,3	130,4	8,6
Shayxontohur	1011,5	136,5	10,1
Yunusobod	1333,0	117,4	13,3
Yakkasaroy	990,8	122,1	9,9
Yashnobod	1650,5	103,6	16,4
Yangihayot	46,2	177,9	0,4

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi zamonaviy insonning turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rin tutadi.


Bugungi kunda Toshkent shahrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2022-yil yanvar–sentabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 10018,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2021- yil yanvar–sentabr oylariga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi sur'ati 124,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (47,3 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo'ldosh aloqa xizmatlari va b.q.) hissasiga to'g'ri keladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, foizda

(2022- yil yanvar–sentabr oylari uchun)



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo‘ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo‘lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Tumanlar o‘rtasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘sish sur‘atlari Bektemir (200,3%), Yangihayot (177,9%), Sergeli (160,9%) va Shayxontohur (136,5%) tumanlarida qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo‘yicha uncha yuqori bo‘lmagan o‘sish sur‘atlari Yashnobod (103,6 %), Yunusobod (117,4 %), va Uchtepa (119,8 %) tumanlarida qayd etildi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning umumiy hajmida
tumanlarning ulushi, foizda
(2022- yil yanvar-sentabr oylari)**




Tumanlar o'rtasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha yuqori ulush Yunusobod (14,4 %), Shayxontohur (14,4 %), Mirzo Ulug'bek (12,1 %), Olmazor (12,4 %), Mirobod (11,9 %), tumanlarida qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulush Yangihayot (0,5 %), Bektemir (1,5 %) va Sergeli (3,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Toshkent shahrida o'tgan yilning mos davrlariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari, foizda


(2022- yil yanvar-sentabr oylari)



Natijada, 2022-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 31 814,0mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'sish 131,6 % ni tashkil etdi

Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, foizda

(2022- yil yanvar–sentabr oylari)



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (85,5 %) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 10,5 % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat 4,0 % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning hajmi
2022- yil yanvar-sentabr oylarida**

	<i>Jami</i>		
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabrga nisbatan, %</i>	<i>Moliyaviy xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi, %</i>
Toshkent shahri	31 814,0	131,6	100,0
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	441,1	94,3	1,4
Mirzo Ulug‘bek	2 855,5	135,1	9,0
Mirobod	4 100,1	126,4	12,9
Olmazor	1 495,0	141,3	4,7
Sergeli	1 298,6	132,4	4,1
Uchtepa	1 663,6	135,1	5,2
Chilonzor	3 667,1	124,5	11,5
Shayxontohur	3 771,3	120,4	11,9
Yunusobod	5 727,9	127,1	18,0
Yakkasaroy	2 414,5	134,5	7,6
Yashnobod	3 036,2	178,2	9,5
Yangihayot	1343,1	144,6	4,2


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

2022-yil yanvar–sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 118,0 % ni, hajmi esa 3 768,8 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 81,4 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,6 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmini taqqoslash, mlrd.so'm


(2022- yil yanvar–sentabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha eng katta hajm Shayxontohur tumanida 885,8 mlrd. so'm qayd etildi. Eng kichik hajm esa Yangihayot tumanida 56,0 mlrd. so'm kuzatildi.

Toshkent shahri bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida tumanlarning ulushi, foizda

(2022- yil yanvar–sentabr oylari uchun)




Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlarni Sergeli (5,6 %), Uchtepa (5,8 %), Bektemir (3,2 %), Yangihayot (2,6%) tumanlari egallaydi.

**Tumanlar kesimida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan)
bozor xizmatlarning hajmi,
2022- yil yanvar-sentabr oylarida**

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021- yil yanvar- sentabrga nisbatan, %</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2021- yil yanvar- sentabrga nisbatan, %</i>
Toshkent shahri	97 252,9	117,4	100,0	33 555,4	113,8
<i>tumanlar:</i>					
Bektemir	3 177,3	120,0	3,3	59 809,6	120,0
Mirzo Ulug'bek	9 302,6	117,6	9,6	29 296,7	117,6
Mirobod	12 147,8	113,9	12,5	82 462,4	113,9
Olmazor	7 556,1	118,6	7,8	19 426,6	118,6
Sergeli	5 424,2	124,6	5,6	35 462,4	124,6
Uchtepa	5 657,8	119,5	5,8	19 593,3	117,1
Chilonzor	10 446,5	115,5	10,7	38 887,5	115,5
Shayxontohur	10 460,3	116,1	10,8	29 324,7	116,1
Yunusobod	13 069,2	114,1	13,4	36 111,7	114,1
Yakkasaroy	8 298,4	115,5	8,5	66 340,9	115,5
Yashnobod	9 209,1	126,6	9,5	32 614,2	126,6
Yangihayot	2503,7	122,7	2,6	16 159,5	122,7

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirobod tumanida – 82 462,4 ming. so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113,9 % ni tashkil etdi.

Tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati
(2022- yil yanvar–sentabr oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Yangihayot (16 159,5 ming so'm), Olmazor (19 426,6 ming so'm), Uchtepa (19 593,3 ming so'm), Mirzo Ulug'bek (29296,7 ming. so'm), Shayxontohur (29324,7 ming. so'm) va Yashnobod (32614,2 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida yuqori o'sish sur'atlari Yashnobod (126,6%), Sergeli (124,6 %) va Yangihayot (122,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Tumanlar o'rtasida past o'sish sur'atlari Mirobod (113,9 %) va Yunusobod (114,1 %) tumanlarida kuzatildi.

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Xizmat sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar va shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan har xil turdagi xizmatlarning takror ishlab chiqarilishini o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Boshqacha qilib aytganda, bu savdo, kasbiy va maishiy xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakat iqtisodiyotining tarmog'idir. Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi. Xizmatning o'ziga xos xususiyati, xizmatni bajarish va uni iste'mol qilish davrining bir xil vaqtga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisoblangan to'lovlar hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekt sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, **bozor uchun ishlab chiqarilgan xizmatlar hisoblanadi.**

“Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko'rsatkichi – ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini o'lchovchi, iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi bu – xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari aloqa sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan telefon, teleks, telegraf, radioeshittirish, elektron pochta, suniy yo‘ldosh, faksimile va boshqalarni ishlatib ovozli ma’lumot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish xizmatlarini qamrab oladi.

Moliyaviy xizmatlar Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi. Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik yo‘li bilan olingan foizlar daromadi (ular uchun to‘lov miqdorida), shuningdek, moliya muassasasining kredit berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun yig‘im bilan hisobga olinadi.

Transport xizmatlari transportning barcha turlarida yuklarni va yo‘lovchilarni tashish faoliyati, shuningdek, transportirovka qilishda yordamchi xizmat turlari, jumladan, logistik xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa yashash uchun joylar kabi qisqa muddatli turar joy bilan ta‘minlash va oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarni o‘z ichiga oladi.

Savdo xizmatlari ulgurji va chakana xizmatlarni birlashtirib, shuningdek, boshqa shaxs manfaatlari uchun tovarlarni oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalari yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan vositachilik xizmatlari hamda avtomobil va motosikllarni ta‘mirlash xizmatlarini o‘z ichiga oladi.

Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatishda ko‘chmas mulk bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo‘qligidan qat‘iy nazar aks ettiriladi.